OLMOSHLARNING LINGVISTIK TAHLILLARINI YUZAGA CHIQARUVCHI VOSITALAR

Obidjonov Xojimurod Xudoyberdi o'g'li
Andijon davlat universiteti
Filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6777030

Annotatsiya. Ushbu maqola tilshunosligimizda tadqiq etilayotgan olmoshning pragmasemantik tabiati haqida bo`lib,ularning tarixi,foydalanish o`rni hamda qo`llanish usuli doirasi haqida ham so`z boradi.Bundan tashqari,o`zbek tilshunosligidagi olmosh pragmasemantikasi ushbu maqolada ko`rib chiqiladi. Kalit so`zlar: Ichi bo`sh so`zlar, kishilik olmoshlari, shaxs ma’nosini bildiruvchi olmoshlar, miqdor va hurmat ma’nolarining ifodalashi.
Olmosh- atash ma’nosiga ega bo’lmaganligi uchun “ichi bo’sh” so’zlar deb yuritiladi. Olmosh tilshunoslikda boshqa so’z turkumlariga nisbatan noananaviy qarashlarni o’zida mujassam qilgan. Olmosh so’z turkumida ma’lum bir so’roq mavjud emas, nutq sharoitidan kelib chiqib ma’lum so’roqqa javob bo’ladi. Qaysi so’z turkumi o’rnida kelsa, o’sha so’z turkumining so’rog’ini qabul qiladi. Olmoshning eng xarakterli tomoni shunda. Garchi uning ma’no ifodalash qobig’I puch bo’lsada, biroq bu turkumdagi so’zlar mustaqil so’z sifatida boshqa mustaqil so’zlar qatoriga qo’yilgan barcha talablarga javob beradi. Masalan, so’zlarni turkumlarga ajratish tamoyillariga ko’ra, olmoshlar mustaqil holda savolga javob bo’ladi, o’zi alohida gap bo’lagi vazifasini bajaradi.

Olmoshlarda shaxs, hurmat, miqdor, munosabat ma’nolarining mujassamligi va ularning nutqda rang-barang usulda voqelanishi, namoyon bo‘lishi tilshunosligimizda aniqlangan. Masalan, kishilik olmoshlaridan men, biz so‘zlovchi ma’nosini bildiradi. masalan:bu ishlarni barchasiga biz aybdor bo`ldikmi?boshqa bu yerlarga kelmayman[ 2,3]. “Sen, siz” olmoshi tinglovchi ma’nosini bildiradi. masalan:sen,avvalo, mendan xafa bo`lma.Akmal, siz bugun darsga borasizmi? “U, ular” olmoshi o‘zga shaxs ma’nosini bildiradi. masalan:Sanobar juda chiroyli yozadi,u sinfda hammamizga o`rnak bo`lmoqda.Ular bizning ustimizdan kulishadi,chunki men ularga yoqmayman. Kishilik olmoshlari so’zlovchi-nutq egasi, tinglovchi hamda uchinchi shaxs ma’nosini ifoda etuvchi so’zlardir. I shaxs (so’zlovchi) II shaxs (tinglovchi) III shaxs (o’zga) Nazariy adabiyotlarda ta’kidlanishicha, sof kishilik olmoshlari faqat shaxsni ko’rstadi, ular so’zlovchi va tinglovchini ifodalovchi olmoshlardir. Sof kishilik olmoshi shaxs ma’nosini ifodalashdan tashqari o’sha shaxs bilan bog’liq hodisa va predmetlarni ham ifoda eta oladi.Masalan, Ertadan kechgacha tinim bilmay ishlayman, lekin bizning ishimizda unum yo’q emish. “Men, sen, u,

biz, siz, ular" so'zlar matn tarkibidan ajratib olinganda aniq ma'no ifoda etmaydi. Shuning uchun bunday so'zlar matnda nutq sharoitida beriladi.Ergashov- majlis raisi labini burdi va bosh chayqab:Men hech qanday maqola yozgan emasman, sizga hech narsa deganim yo'q,-dedi (A.Qahhor) Miqdor ma'nosining ifodalanishi jihatidan men, sen birlik ma'nosini bildiradi. masalan:men,sen –ikkovimiz birga darsga boramiz. biz, sizlar, senlar, bizlar ko'plik ma'nosini bildiradi. masalan:biz ,yoshlar Vatanning kelajagimiz. Salima,Halima- sizlar bir sinfda o`qiysizmi?Senlarga og`irligim tushayotgani yo`q.Bizlar bugun hammamiz yo`lga jo`nab ketamiz.

siz, ular birlikka ham, ko'plikka ham betaraf ma'noni ma'nosini bildiradi. masalan:oyijon,siz bizga juda mehribonsiz.Dadam juda qattiqqo`l insonlar,ular bizning kelajagimizni o`ylaydilar. Hurmat ma'nosi II va III shaxs olmoshlariga xos. Masalan:Sobir tog`am juda soddadil inson,ular doimo gapimga ishonadilar.Salima bugun siz bilan dars qilaman.Munosabat ma'nosi kishilik olmoshlarining kelishik qo'shimchalarini olib o'zgarishida yuzaga chiqadi. Kishilik olmoshlariga egalik ma'nosi ham xos. Ushbu olmoshlar qaratgich kelishigida egalik ma'nosini bildiradi: bizning universitet respublikada eng oliy o`rinlarni egallab kelmoqda. O'zbek tilida egalik ma'nosi kishilik olmoshiga –niki qo'shimchasini qo'shish bilan ham ifodalanadi: meniki, bizniki, seniki kabi. Olmosh qo'shma gaplarda havola bo'lak vazifasini ham bajaradi. Masalan, Kim chaqqon va tez harakat qilsa, yutuq o'shaniki bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, kishilik olmoshlari shaxs olmoshlari bo`lib,hurmat, miqdor, kesatiq, manmanlik,o`zini ta'kidlamaslik ma'nolarini ham ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A.Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q.-Toshkent:Sharq,1998.- 78.
2. Abidova Sh.O`zbek tilida hurmat ma'nosining ifodalanishi // O`zbek tili va adabiyoti.2000. -B.67-71
3. Hakimov M.O`zbek progmalingvistikasi asoslari.2013. -B.65-66
4. Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. – Самарқанд: САМДЧТИ, 2007. В.15-18.
5. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси". Давлат ил-мий нашриёти. -Тошкент – 2008. В.34-39.